



G`AFUR G`ULOMNING “SEN YETIM EMASSAN” SHE’RIDAGI SHOIRNING ICHKI KECHINMALARI

Eshboyev Sharafiddin

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada G`afur G`ulomning “Sen yetim emassan” she’rining tub ma’no-mazmuni tahlil qilinadi va ushbu she’rning o’zbek adabiyotida tutgan o`rni tahlil qilinadi.

Kirish so`zlar: yetim, jigarim, mehribon, nondek arzanda, ulug` vatan urushi

Аннотация: В данной статье анализируется основной смысл стихотворения Гафура Гулама «Ты не сирота» и анализируется место этого стихотворения в узбекской литературе.

Ключевые слова: сирота, печеночный, добрый, дешевый, как хлеб, великая отечественная война.

Abstract: This article analyzes the basic meaning of Gafur Ghulam's poem "You are not an orphan" and analyzes the place of this poem in Uzbek literature.

Key words: orphan, liver, kind, cheap as bread, great patriotic war.

G`afur G`ulom o`zbek adabiyotiga o`zining hikoyalari, asarlari va tarjima asarlari bilan juda katta hissa qo`shgan. Shuningdek, G`afur G`ulom o`zining she’rlari bilan ham judayam mashhur. Uning mashhur she’rlaridan biri bu “Sen yetim emassan” she’ridir. Ushbu she’r Ikkinci jahon urushi yillarida yozilgan. She’rning nomi “Sen yetim emassan” – ham xitob shaklida va shuningdek, nido shaklida ham bo‘lib, ushbu sarlavhaning o‘zida qanchadan-qancha ma’no mavjud. Ma’lumki, urushning dastlabki yilida nemislar vaqtincha bosib olgan yurtlardan ming-minglab aholi, xususan, ota-onasiz qolgan bolalar mamlakatning urushdan olis joylariga evakuatsiya qilindi, ya’ni ko‘chirildi. Ular, asosan Markaziy Osiyodagi beshta davlatga yuborilgan. Hammaga ma’lumki, o’zbek xalqi judayam mehmondo`st va mehribon xalq hisoblanadi, shuning uchun ular boshqa millatdan ko`chib kelgan yetim bolalarni ham xuddi o`z bolalariday asrab olishgan.

Nega aynan ushbu she’rni G`afur G`ulom yozgan? Bunga bir qancha sabablar bor. Jumladan G`afur G`ulomning o`zi ham to‘qqiz yoshida otasidan, o‘n besh yoshida onasidan yetim qolgan. Shuning uchun G`afur G`ulom yetimlik tuyg`usini o`zida shaxsan his qilib ko`rgan va yetim bolalarga ushbu she’r orqali qandaydir



ma'noda madad berishga harakat qilgan. Bundan tashqari, Shoirning "Kechmish va kechirmishlarimdan" deb nomlangan tarjimai holida yozilishicha, "1923 yillarda Maorif komissarligi bolalar boqimsizligi bilan kurash jamiyatni bilan birlikda bolalar uyi – internatlar ochishini menga topshirdi. O'rdada "Urfon" o'rta maktabini tashkil qilishda ishtirok etdim. Uning yonida 150 bolalik internat – boqimsiz bolalar uyi ham ochildi"¹. Ya'ni u boqimsiz qolgan bolalar uyi ochilishida faol yordam bergan va aynan ushbu joyda ishslash paytida shoir o'zining ilk she'ri "Feliks bolalari" ni yozdi. U shunday boshlanadi:

*Biz odam bolasimiz,
Odamning donasimiz,
Biz o'sib ulg'ayamiz,
Olim bo'lish g'oyamiz.*

Aynan "Feliks bolalari" she'ridagi jumlalar "Sen yetim emassan" she'rining so`nggi jumlalari uchun asos bo'lган ya'ni "Men odam edim-ku, inson farzandi" satrlari. She'r sarlavhasidan keyin qavs ichida berilgan ma'lumot tarzidagi gap, bag'ishlov sodda ko'ringani bilan shu holga kelgunga qadar bir-ikki bosqichni o'tgan. Dastlab mashinka nusxada "Ulug' Vatan urushining ota-onasiz qolgan yetimlariga!", "Sovet O'zbekistoni" gazetasida bosilgan nusxada "Ulug' Vatan urushida ota-onasiz qolgan go'daklarga", so'ng qat'iy to'xtamga kelingan variant: "Ulug' Vatan urushining ota-onasiz qolgan go'daklariga". She'rning shakli ham "Vaqt", "Sog'inish" she'rlari kabi yoyiq usulda yozilmagan, ushbu she'r boshqacha usulda yozilgan. She'r quyidagicha boshlanadi:

*Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim.
Quyoshday mehribon
Vataning-onang,
Zaminday vazminu
Mehnatkash, mushfiq
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor- otang bor.
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasan,
Bu yerda
Na g'urbat, na ofat, na g'am.*

¹ G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. O'n ikki tomlik. 1-tom. T.: Fan, 1983. 16-bet.



*Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat
Va mehnat nonini ko‘ramiz baham,
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.*

Ushbu jumlalarda ulug` vatan urushi tufayli yetim bo`lib qolgan bolalarga tasalli beriladi va O`zbekistonning qanchalar jannatmakon, quyoshli o`lka ekanligi tasvirlanadi. “Xalq bor – otang bor, cho`chima jigarim” jumlesi orqali shoir xalqimiz bu senga otang o`rnida ota vazifasini bajaradi va senga g`amxo`rlik qiladi demoqda.

Bundan tashqari she’rda G`afur G`ulom o`zining ham bolaligi yetimlikda o`tganligini va ko`plab qiyinchiliklarga duch kelganligini ushbu satrlar orqali bilib olsak bo`ladi:

*Men yetim o‘tganman,
Oh, u yetimlik...
Voy, bechora jonim,
Desam arziydi.
Boshimni silashga
Bir mehribon qo‘l,
Bir og‘iz shirin so‘z
Nondek arzanda.
Men odam edim-ku,
Inson farzandi...
Sen yetim emassan,
Uxla jigarim.*

Ya’ni yetimlik paytida bir mehribon qo‘l va bir og‘iz shirin so‘z topolmaganligini ifodalagan va “Men odam edim-ku..” deb jumlanı davom ettiradi. Ming afsuski, hayot va o‘lim bor ekan, yetimlik abadiy muammo. Insoniyat borki, yetimlik mavjud. Ushbu g‘amg‘usor holat she’rga mangulik baxsh etadi. Farg‘onalik Hotam Qo‘shoqov “G‘afur ota” deya Shoирга shunday noma yo‘llaydi:

*Hali esimdadir, ota she’rlaring,
Yod etib yig‘ini qoyil qilganim...
Hali esimdadir, otam ko‘z yumib,
Yuragim ezilib yoshlar oqqani...
Esimda, o‘sha chog‘ G‘afurim kelib,
“Sen yetim emassan”, deb yupatgani²*

² G‘afur G‘ulom. Akademik nashrga kirmagan asar va maktublari. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 278-279-betlar.



Bu mazkur judayam katta ma'noga ega she'r kecha ham, bugun ham ishlamoqda, kelajakda ham ishlaydi, o'z insoniy vazifasini ado etaveradi, degan so'zdir. Muqaddas dinimizda mazlumlarga hamisha rahm-shafqat qilinadi. Yetimlar – taqdir hukmi bilan ota-onasidan ayrilgan mazlumlardir. Ya'ni ular o'zi xohlab yetimlikni tanlamaydi va ularning yetim bo`lib qolishida ularning hech qanday aybi yo`q, shuning uchun ularga ham hamma qatori ota-onsa mehri berilishi va g`amxo`rlik qilinishi kerak.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. O'n ikki tomlik. 1-tom. T.: Fan, 1983. 16-bet
2. G'afur G'ulom. Akademik nashrga kirmagan asar va maktublari. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 278-279-betlar.
3. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.
4. Гулям Г., Айбек, Алимджан Х. Стихотворения и поэмы. Ленинград: Советский писатель, 1980. С.